

SIYOSIY MATNLARDA PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING QO‘LLANISHI XUSUSIDA

Iskandarova Sharifa Madaliyevna

filologiya fanlari doktori, professor

Farg‘ona davlat universiteti

Yokubbayeva Umida Abduvaxob qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

***Annotatsiya.** Maqolada paremiologik birliklar va ularning o‘rganilishi, paremalarning lingvokulturologik xususiyatlari, ularning muqobilsiz leksika sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlari tahlillar orqali ochib berilgan. Siyosiy matnlarning mazmun mundarijasida maqollarning tutgan o‘rni, bajaradigan vazifasi haqida fikrlar bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar.** paremiologik birlik, madaniy belgi, lingvokulturologiya, semantika, o‘z ma‘no, ko‘chma ma‘no, assotsiatsiya.*

***Аннотация.** В статье описаны паремнологические единицы и их изучение, лингвокультурные особенности парем. Путем анализа выявлены специфические характеристики парем в качестве альтернативной лексики. Приводятся научные заключения о роли пословиц в содержании политических текстов и задачах, которую они выполняют.*

***Ключевые слова.** Паремнологические единицы, культурный знак, лингвокультурология, семантика, прямое значение, переносное значение, ассоциация.*

***Annotation.** Paremiological units and their study, their linguocultural features are explained in the article. The specific characteristics of paremas as a non-alternative lexicon are revealed through analysis. Research conclusions on the important role and the functions of proverbs in the content of political texts are presented.*

***Key words:** Paremiological units, cultural sign, linguoculturalogy, semantics, direct meaning, figurative meaning, association.*

Paremiologik birliklar xalqning hayotiy tajribasi, xulosalari asosida yuzaga keladi. Paremiya lingvistik, ijtimoiy-siyosiy, madaniy belgilarni, psixolingvistik, sotsiolingvistik xususiyatlarni o‘zida mujassamlantirgan hodisadir [3,174-178].

Siyosiy matnda xalqning milliy dunyoqarashi va an‘analari haqidagi madaniy elementlarga murojaat qilinadi. Bu muayyan auditoriya bilan muloqotga kirishish, milliy o‘ziga xoslikni ta‘kidlash yoki muayyan his-tuyg‘ularni faollashtirish uchun

amalga oshirilishi mumkin. Ijtimoiy-siyosiy leksika bilan mazmuniy hamohanglik kasb etishda maqollarning hukm mazmunidagi, emotsional bo‘yoq bilan qorishmagan, jamiyatning ijtimoiy turish-turmishi, kishilik jamiyatining ayrim xususiyatlarini ko‘rsatib beruvchi maqol va matallardan foydalaniladi. Bir nutqiy vaziyatda o‘z va ko‘chma ma‘nosining har ikkisi ham anglashilib turuvchi maqollarning semantik strukturasi ijobiy yoki salbiy munosabat mavjud emasligi ularni rasmiy muloqot jarayoni va siyosiy mazmundagi matn doirasida badiiy hamda publitsistik materiallarga nisbatan faolroq qo‘llanishiga olib keladi. Bunday maqollarda “shartlik” ma‘nosi pragmatik shaklda anglashilib turadi. Jumladan, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida qo‘llangan paremalarda ham mazkur xususiyatlar mavjud ekanligi va o‘zbekona milliy qadriyatlarni ifoda etib kelgan. Masalan, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida qo‘llangan paremalarning dastlabkisi “Bir bolaga yetti mahalla – ota-ona” maqolidir. “Yoshlar tarbiyasida jamoatchilikning roli susayib borayotgani barchamizni tashvishga solishi lozim. Ilgari “bir bolaga yetti mahalla – ota-ona”, degan maqolga amal qilib yashardik” [1, 32].

Mazkur paremiologik birlik xalqimizning uzoq yillar qondoshlik, mahalla va odamiylik belgilari asosida shakllangan. Xalqimizda bitta bolaning tarbiya jarayonida uning ota-onasi va yaqinlari ishtirok etishi, mahalla ahllarining bolaga doimo e‘tiborda bo‘lishi, xuddi o‘z ota-onasidek tarbiyalashi lozimligi qadim tarixdan majburiyat sifatida qarab kelingan. Bolaning xulq-atvoridagi har bir salbiy va ijobiy o‘zgarish natijasida keladigan munosabatlar faqat ota-onasiga emas, atrofidagi butun jamiyatga qaratilganligi sababli ham bola bilan bog‘liq boshqa lingvokulturemalar shakllandi. Jumladan, “bolaning begonasi bo‘lmaydi” paremasi yuqoridagi maqolga semantik yaqinlikka ega bo‘lsa-da, shartlik ma‘nosi mavjud emas.

“Til bilgan – el biladi” maqolining semantik tarkibida ham “shartlik” ma‘nosi mavjud bo‘lib, tilni “so‘zlashish”, “munosabatga kirituvchilik” vositasi sifatida qaralgan. Emotsional bo‘yoqdorligi mavjud bo‘lmagan mazkur paremiologik birlik “agar til bilsang, keyin yurt kezing mumkin” degan xulosani beradi. Ko‘chma ma‘noga ega bo‘lmagan ushbu maqol, siyosiy mazmundagi matn talabiga muvofiq kelib, siyosiy jarayonlar haqidagi fikrlarga debocha sifatida berilgan. Maqol asarda avvaldan qadriyat darajasiga ko‘tarilgan, o‘zga millat tilini o‘rganishga qaratilgan jumalarning sodda ifodasi shaklida kelganligini ko‘rish mumkin. Masalan, “Bag‘rikeng xalqimiz “Til bilgan – el biladi”, – deydi. O‘z tilini hurmat qilgan ma‘rifatli xalq boshqalarning tiliga ham chuqur hurmat bilan qaraydi” [1,32].

Manbalarda ushbu maqolning semantik muqobillari haqida ma‘lumotlar mavjud. Jumladan “Til bilgan yo‘lda qolmas”, “Qardosh tilin bilmoq – qadrdonlik belisi” kabi. Ushbu maqollarda “shartlik” ma‘nosi mavjud bo‘lmas-da, “til”ni

ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga xizmat qiluvchi vosita sifatida qarash har uchala maqolni bir mazmuniy maydonda birlashtiradi va xalqimizning etnik o'ziga xos hayoti haqida ma'lumot beradi, chunki xalqimizda qadim tarixdan "Kishi o'z ona tilisini bilishidan tashqari o'zga ellar tarixini ham o'rganishi kerakligi, buning ahamiyati katta ekanligi, o'zga ellar tilini bilish – ularning dilini bilishga, ular bilan javob-muomala, bordi-keldi qilish, do'stona aloqalar o'rnatish sari yo'l ochib beradi" [4,393], – deya tushunilgan. Mazkur maqol bugungi siyosiy o'zgarishlarga ham tamoman muvofiq kela oladigan, ijtimoiy-siyosiy voqelikning tarixiy, tadrijiy rivojlanish omillari natijasi sifatida yuzaga kelgan, chunki til xalqimiz lisonida insoniy munosabatlarning kaliti sifatida qaralgan.

"Ustoz otadek ulug'" maqoli xalqimizda keng qo'llanuvchi "Ustoz otangdan ulug'" maqolining transformatsiyaga uchragan shakli bo'lib, uning tarkibidagi affiksatsion o'zgarish maqolning semantik strukturasi ham ta'sir etganligini ko'rish mumkin, chunki o'xshatish ma'nosini ifodalovchi morfologik vositalar maqoldagi xalqning etnik qadriyatlari bilan bog'liq tushunchalarni noto'g'ri talqin qilinishiga olib keladi. Bu haqda tilshunos T.Mirzayev quyidagi fikrlarni berib o'tgan: "Bunday shaklda otani kamsitish holati yo'q, shunday bo'lganda xalq "Ota – rozi xudo rozi" degan maqolni yaratmas edi. Bu yerda ustoz hurmatini bo'rtirish bor. "Xalqimiz hamisha ustozlarni e'zozlab, ularning hurmat-izzatini joyiga qo'yib kelgan. "Ustoz otangdek ulug'" degan hikmatli naql ham bejizga aytilmagan" [1,226]. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida qo'llangan ushbu maqoldagi -dek affiksi sezilarli darajadagi noto'g'ri xulosani bermay o'quvchi e'tiborini ustozga qaratish, ustozning xususiyatlarini bo'rtirishga xizmat qilish bilan birga mamlakat prezidentini o'qituvchi kasbiga bo'lgan ijobiy munosabatini ko'rsatishga xizmat qilgan. Shuningdek, mavjud siyosiy jarayonning xalq uchun tanish qadriyatlarga asoslanganligini ifodalagan.

"Oqqan daryo oqaveradi" paremasi "Oqqan ariq oqmay qolmas", "Oqqan ariqqa suv keladi", "Oqqan ariq oqmay qolmas, ikki ko'zing boqmay qolmas" kabi shakllarda ham uchraydi. Etiologik xarakterga ega, didaktik va informativ belgilar singdirilgan ushbu maqol matn mazmunini mukammallashtirishda muhim vosita bo'lib kelgan. Xalqimizning xulosasi, hukmini ifodalagan mazkur parema ma'lum voqelikni to'siqlarga qaramay davom etishini ifodalab, pragmatik jihatdan "ishonch" semasini ifodalab kelgan. Asarning ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'limida ta'lim tashkilotlaridagi jarayonning muntazam davom etishi, tarbiya va ta'lim jamiyat rivojida muhim omil ekanligiga ishora qilgan. Masalan, "Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. "Oqqan daryo oqaveradi", – deydi xalqimiz. Bugun buyuk ajdodlarimizning bebaho merosiga tayanib, yangi Renessans

poydevorini yaratish uchun bizda barcha imkoniyatlar mavjud, deyishga to‘la asoslarimiz bor” [1,223-224]. “Oqqan daryo oqaveradi” maqoli turli nutqiy vaziyatlarda qo‘llanib kelsa-da “davomiylik”ka ishora qilib kelishi asarda ham mavjud. Siyosiy nuqtayi nazardan mamalakatlar hamisha rivojlanish uchun harakatda bo‘lishi kerakligi, buni zamonning o‘zi talab etayotganligi, bu jarayonni to‘xtatib bo‘lmasligi haqidagi fikrlar xalqchil ifoda etilgan, chunki kontekstning davomida tilga olingan “Renessans poydevorini yaratish” jumlasini davomiy rivojlanishning yangi bosqichiga ishora qilib, maqol bilan mazmuniy hamohanglik tashkil etgan.

Umuman, siyosiy matnlarda maqollar rahbarlik, hokimiyat va boshqaruv mavzularida tez-tez ishlatilib, yetakchilik va hokimiyatning mas’uliyatini ta’kidlaydi. Xalqning qudrati va boshqaruv jarayoniga ta’siri, adolat, tenglikni boshqaruvda muhim ekanligini ifodalaydi. Maqollar siyosiy matnlarni ijtimoiy mazmun bilan ta’minlaydi. Ushbu og‘zaki an’analar siyosiy xabarlarni yanada samaraliroq yetkazishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: О‘zbekiston, 2022.
2. Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремикологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984.
3. Комилова Г. Антоним компонентли паремияларнинг лингвокультурологик тадқиқи //Тилшуносликнинг долзарб масалалари: VI. – Тошкент, 2012.
4. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов. Ҳикматнома. – Тошкент.: Ўзбек энциклопедияси, 1990.
5. О‘zbek tilining izohli lug‘ati. III jild – Toshkent: G‘ofur G‘ulom, 2023.